



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Nabiyeva Dilfuza Temirovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sharof Rashidov nomidagi, Samarqand davlat universiteti,  
“Fakultetlararo pedagogika”, kafedrasи o‘qituvchisi

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARI ORQALI MA’NAVIY FAOLIYATGA METODIK TAYYORLASH

**Annotatsiya:** Maqolada “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fani ta‘limida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil ish va malakaviy bituruv ishlarini bajarishga jalb qilish orqali ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlash bilan bog‘liq masalalar qaralgan.

**Kalit so‘zlar:** Ma’naviy tarbiya, kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik, metodik tayyorlash, mustaqil ish, bituruv malakaviy ish.

Uzluksiz ta‘lim tizimida yuqori malakali o‘qituvchi pedagoglarni tarbiyalashda amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni birgina o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Bu bo‘lajak o‘qituvchini doimo o‘zgarib borayotgan sharoitda muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritishi uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda faol o‘zlashtirishga hamda uni kelgusi faoliyatida kasbiy o‘sib borishini taminlash imkoniyatini yaratishga o‘rgatish talab etiladi.

Talabalarda – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mustaqil bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ularni mustaqil ish va malakaviy bituruv ishlarini bajarishga jalb qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar mustaqil ish va malakaviy bituruv ishlarini bajarish jarayonida tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi, zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlari va tajriba-sinov o‘tkazish metodikasi hamda mazkur sohalar bo‘yicha xorij va mamlakatimizda erishilgan ilg‘or tajribalarni mustaqil o‘rganadilar.

“Boshlang‘ich ta‘lim, sport va tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olish davomida talabalar “Pedagogika nazariyasi va tarixi” hamda “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fanlaridan mustaqil ishlarini bajarishga jalg qilinadilar.

Mazkur mustaqil ishlarni bajarishdan maqsad talabalarni kelgusi pedagogik faoliyatga kichik yoshdagi o‘quvchilarni ma ‘naviy tarbiyalash, ularning shaxsini o‘rganish bo‘yicha nazariy, metod va shakllar bo‘yicha ularning bilimlarni chuqurlashtirish va tizimlashtirish hamda o‘quvchilarni malakaviy tarbiyalash bo‘yicha erishilgan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish hamda pedagogik, metodik va ilmiy-uslubiy adabiyotlardan foydalanish ko‘nikmalarini egallash, ularda o‘quv-uslubiy vazifalarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Shu munosabat bilan Pedagogika fakulteti talabalari kichik yoshdagi maktab bolalarini ma ‘naviy tarbiyalash bo‘yicha quyidagi mavzularda mustaqil ishlarini bajaradilar:

- o‘quvchilar shaxsi ma‘naviyatini namoyon qilish va o‘rganish bo‘yicha anketa va metodikalar ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish;
- o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash maqsadida tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi faning ayrim potinsial imkoniyatlarini namoyish qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- o‘quvchilarni ma ‘naviy tarbiyalash bo‘yicha ma‘naviy yo‘g‘rilgan ko‘rgazmali vosita (stend, albom, slayd va b.q.)larni ishlab chiqish, tayyorlash va ularni qo‘llashning qulay metodini dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda tanlash;
- -boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma‘naviy tarbiyalash bo‘yicha o‘qituvchilar ilg‘or tajribasini o‘rganish;
- -kichik yoshdagi o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalashda maktab, oila va mahallaning o‘zaro hamkorligini amaldagi holatini o‘rganish; va h.k.

Talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni zaruriy va muhim sharti ularni aprabatsiya qilish va boshlang‘ich ta‘lim maktabi o‘quv jarayoniga joriy etish hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma‘naviy faoliyatga metodik tayyorlash bo‘yicha mustqil ishlarining samaradorligini tadqiqot natijalari tasdiqlaydi.

Kichik yoshidagi maktab o‘quvchilarini ma‘naviy tarbiyalash bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarishga talabalarni jalg qilishdan oldin talabalar o‘rtasida so‘rovnama o‘tkazilib, unda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma‘naviy tarbiyaviy faoliyatga metodik tayyorlash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni namoyon qilish maqsaddida ularga amaliy topshiriqlar taqdim etiladi. Bu esa ma‘naviy tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashga juda past bo‘lgan talablarni namoyon qilishga imkon yaratadi. Shu bois, mazkur guruh talabalari “Tabiatshunoslik va uni bajarishga oid topshiriqlar oladilar.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabalarga muntazam ravishda maslaxatlar berib borildi. Ular uchun o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash mavzusi bo‘yicha metodik tarbiya ishlab chiqildi. Aytish joizki, ayrim talabalar mashg‘ulotda qisqa ilmiy-uslubiy xabarlar bilan chiqish qildilar.

Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi fani bo‘yicha mustaqil ishlarini himoya qilganlaridan keyin bu yana ularga savollar va ma ‘naviy tarbiya bo‘yicha maxsus amaliy topshiriqni bajarishni taqdim etadi. O‘tkazilgan taxlillar natijasiga ko‘ra o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash mavzusi bo‘yicha mustaqil ishni bajargan talabalar tabiatshunoslik va

uni o‘qitish metodikasi fanining umumiy va xususiy masalalari bo‘yicha mustaqil ishni bajargan talabalarga nisbatan ustunligini ko‘rsatadi. Masalan, Tabiatshunoslik 3-sinf fani bo‘yicha ma‘naviy yo‘g‘rilgan dars konsepti ishlanmasini ishlab chiqish topshirig‘i taqdim etilganda birinchi guruh talabalari ushbu topshiriqni to‘la bajargan bo‘lsalar, ikkinchi guruh talabalari har uchtadan bittasi bajaradi xolos.

O‘tkazilgan so‘rovnomalarning ko‘rsatishicha, o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash masalalari bo‘yicha mutaqil ishni bajargan talabalarda to‘garak mashg‘ulotlari, ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish metodikasi bo‘yicha bilimlar sezilarli darajada yuqorilagini ko‘rsatdi.

Mazkur guruh talabalarining aksariyat ko‘pchiligi yosh avlodni ma‘naviy tarbiyalash jamiyatining boshlang‘ich maktab oldiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasi bo‘lganligi bois uni bajarish har bir pedagogning ma‘suliyatli burchi deb hisoblaydi. Masalan, o‘tkazilgan so‘rovnama natijasiga ko‘ra birinchi guruh talabalari oliy ta‘limni bitirib borgandan so‘ng kichik yoshdagi o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash ishini amalga oshirishni o‘zining ma‘suliyatli burchi deb hisoblaydilar. Ishchi guruh talabalarning uchdan bir qismi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ushbu ishni o‘zlarining kasbiy burchi deb hisoblaydilar, xolos.

Ko‘p hollarda mustaqil ishini bajarish jarayoni hamda uning natijalari asosida malakaviy bituruv ishlari mavzulari shakllantiriladi. Malakaviy bituruv ishlari mavzulari talabalarga odatda ularning Oliy ta‘limni tugatishdan 1,5-2 yil oldin taqdim etiladi. Malakaviy bitiruv ishlarini o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon b o‘ladi:

- ✓ ularning natijalarini albatta o‘quv jarayoniga joriy etilishi;
- ✓ ko‘p sonli boshlang‘ich ta‘lim maktablari, pedagogik kollejlarning ma‘naviy yo‘g‘rilgan ko‘rgazmali vosita (stend, albom, slayd v.h.)larni loyihalash, tayyorlash)lari qatoriga buyurtmalarni bajarish;
- ✓ Tabiatshunoslik fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash ishini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash bo‘yicha oliy maktab ta‘lim muassasasida bajariladigan malakaviy bitiruv ishlari natijalarini bevosita o‘quv jarayoniga joriy etish tajribasi bo‘lajak boshlang‘ich snf o‘qituvchilarini kelgusi pedagogik faoliyatining birinchi kunlaridanoq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olg‘a surilgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” [2] degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharfli vazifadir”, ijtimoiy buyurtmani bajarishga munosib hissa qo‘shadi.

Davomli kuzatishlarimiz natijalari asosida aytish mumkinki, yuqori saviyada bajarilgan mustaqil ish va malakaviy bituruv ishlarini bajargan talabalar aksariyat hollarda ijodkor boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib yetishadi. Ular orasidan oliy toifali o‘qituvchi, xalq maorifi a‘lochisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, mamlakatimiz ordenlari bilan mukofatlanganlari ko‘plab topiladi.

## Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.-T.,2020.-75b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//”Zarafshon” gazetasi, 2020 yil 31 dekabr.

3. Витязев В., Нестерев Н.Н. Роль курсов и дипломных работ в совершенствовании профариентационей подготовки будущих учителей трудового обучения – Нижний тагил:ИИГПИ. 1982.- с 42-45.
4. “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fanining o‘quv dasturi.-T.: ToshDPU.-16 b.
5. Ibragimov, A. A. (2018). Organizational and Pedagogical Aspects of Multi-Vector Approach to Professional Developing Public Education Personnel. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
6. Sharipboyevna, G. F., & Mamadiyarovich, V. T. (2021). PEDAGOG-XODIMLARNING UZLUKSIZ O ‘QISHINI TASHKIL QILISH VA UNING MUHIM JIHATLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 37-41.
7. Сорокин Н.Ф. Дипломные работы в педагогических вузах.-М.: Просвещение, 1986.
8. Baxranovna, R. M. (2022). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM MATEMATIKA DARSLARIDA QADRIYATLAR ORQALI O ‘QUVCHILARNI MA’NAVIY TARBIYALASH. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(2), 130-135.
9. Baxranovna, M. R. (2022). International System Assessment of Reading Literacy of Primary School Pupils Pirls. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 35-38.
10. Jamilovna, N. D. (2022). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDAGI SINF RAHBARLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ROLI (MALAKA OSHIRISH KURSLAR MISOLIDA). *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(2), 124-129.